


## Korxonalar va tashkilotlarning demografiyasi

### 1. Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar holati.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida olib borilgan islohotlar natijasida, 2017 yil 1 iyul holatiga, viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 22062 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 13,5 foizga oshganligini ko'rsatdi. Ushbu korxonalarining asosiy qismi, 6917 tasi Samarqand shahriga, 1947 tasi Urgut, 1786 tasi Pastdarg'om, 1442 tasi Samarqand, 1210 tasi Payariq, 1124 tasi Ishtixon, 1009 tasi Kattaqo'rg'on, 877 tasi Bulung'ur, 861 tasi Narpay, 849 tasi Tayloq, 828 tasi Oqdaryo, 746 tasi Jomboy, 633 tasi Nurobod, 572 tasi Paxtachi, 551 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 710 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.

### Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### 2. Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar faolligi.

Shu bilan birga, 2017 yil 1 iyul holatiga kelib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 20946 tani tashkil etildi.


Mazkur ko'rsatkich viloyat bo'yicha asosiy qismi, 6562 tasi Samarqand shahriga, 1909 tasi Urgut, 1661 tasi Pastdarg'om, 1384 tasi Samarqand, 1121 tasi Payariq, 1090 tasi Ishtixon, 941 tasi Kattaqo'rg'on, 831 tasi Bulung'ur, 823 tasi Tayloq, 819 tasi Narpay, 780 tasi Oqdaryo, 686 tasi Jomboy, 592 tasi Nurobod, 536 tasi Paxtachi, 528 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 683 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida 2017 yil 1 iyul holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 20946 ta yuridik shaxsning (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) asosiy qismi 4805 tasi savdo, 3634 tasi sanoat, 1650 tasi qurilish, 1371 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1171 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 681 tasi tashish va saqlash, 427 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 397 tasi axborot va aloqa hamda 6810 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda



**3. Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarni rivojlantirish**

2017 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 272 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga yoki 11,9 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 205 tasi qo'shma korxonalar, 67 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Ro'yxatga olingan xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi 185 tasi sanoatda, 43 tasi savdo, 13 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5 tasi tashish va saqlashda, 2 tasi qurilishda va 15 boshqa turdagi sohalariga to'g'ri keladi.

### 2017 yil 1 iyul holatiga Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni

